



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

**GLOBAL TA‘LIM VA MILLIY METODIKA
TARAQQIYOTI**

**mavzusidagi V an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

2021-yil, 26-aprel

Toshkent – 2021

**UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)**

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi V an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent – 2021.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasidan tashkil etilgan.

Mas’ul muharrirlar:

M.Abdullayeva f.f.nomzodi, dotsent

X.Xamrakulova f.f. doktori, dotsent

Taqrizchilar:

H.Homidiy f.f.doktori, professor

J.Jo‘rayev f.f.doktori

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

S.Kambarova, Sh.Rahmonova, A.Xayrullayev, Q.Mamiraliyev,

Y.Ziyayeva, O‘.Yo‘ldoshev

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2021-yil 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

estetik tarbiya quroli sifatida o‘z vazifalarini bajarishda davom etyaptimi yoki yo‘q degan savolga javob olishning birgina yo‘li bugun yaratilayotgan asarlarni keng tahlil qilishdir. Navbatdagi tahlilga tortmoqchi bo‘lgan asarimiz 2019-yilda “Birinchii kitobim” loyihasi asosida chop etilgan “Raqos yaproqlar” kitobi. Unga uch nafar yosh ijodkor: Naima Anvarova, Mo‘tabar Hasanova, Mohidil Abdullayeva ijod namunalari o‘rin olgan. Dastlab ijodkor Naima Anvarovanning kitobdan o‘rin olgan “Makka va hakka” to‘plami haqida. Shoirira she‘rlaridagi samimiylik, bolalarcha soddalik insonni o‘ziga tortadi. To‘plamga kiritilgan “Yomg‘ir” she‘rida hajviylik tarang darajada. Unda ustoz bolalarga yomg‘ir nima deya savol beradi. Hoshim degan topqir o‘quvchining yomg‘ir – bulutlardan oqayotdan ter deya qiziqarli tarzda javob berishi, albatta, bolalarcha o‘ynoqilik, bolalarcha kulgi uyg‘otadi. Ushbu she‘rda hajviya bolalarga tarbiya bermasligi, yangi bilim o‘rgatmasligi mumkin. Lekin ularni so‘z o‘yinlariga, gapga ustalikka chorlashi shubhasiz. Bundan tashqari, mazkur she‘r bolalar tasavvur olamini ham boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.: “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.,T;2018. – b 65.

3.2. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2006. – 8 дек.

Ховли тўла болалар. Шеърлар ва эртаклар. – Тошкент: Юлдузча, 1988. – Б. 19 (кейинги мисолларнинг саҳифаси қавс ичида кўрсатилди.)

4. Расулов А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 214 б.

5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. Б – 372.

“QISASI RABG‘UZIY”DA HAYVONOT DUNYOSINING PAYDO

BO‘LISHI HAQIDAGI MIFLAR

Shukurova Zilola

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

«Qisasi Rabg‘uziy»da hayvonot olami haqida bir-biridan qiziqarli lavhalar keltirilgan bo‘lib, ular genezisiga ko‘ra qadimiy mif namunalari. «O‘rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, o‘z navbatida, islomiy e‘tiqod, dunyoqarash bilan

birgalikda islom va arab mifologiyasining ham bu yerga singishiga sabab bo'ldi. Natijada mahalliy mifologik tizim ham islomiy dunyoqarashga moslashdi»²⁵. Qissada hayvonlar haqidagi ana shunday qarashlar ifodasi uchrab, insonlarning tabiatni o'rganish haqidagi ilk ilmiy tasavvurlari mahsuli sifatida qimmatlidir. Ana shunday etiologik xususiyatga ega parrandalardan biri xo'roz. Xo'roz va uning tabiati haqida xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Ular xilma-xil va turli mavzularda bo'lib, ba'zilarida ijobiy obraz sifatida gavalansa, ayrimlarida xalqning unga nisbatan salbiy munosabati aks etgan og'zaki ijod namunalari ko'zga tashlanadi. O'zbek mumtoz adabiyotida fisq fujur, qichqirig'i keraksiz g'avg'o, o'zini-o'zi ko'z-ko'z qiluvchi obraz deya ta'riflangan²⁶ xo'roz ko'p qirrali murakkab obraz bo'lib, arab va turkiy xalqlarning folklor namunalarida kuchga to'lgan harbiy qiyofasida tasvirlangan²⁷. Demak, xo'rozning viqorli ko'rinishi, o'zini hamda atrofidagi turdoshlarini himoya qilish uchun qiladigan «jangi» harbiylarning holatiga o'xshatilgan. Ba'zi xalqlarning folklor namunalarida xo'roz quyosh bilan bog'lanadi. Chunki u quyosh kabi vaqt me'yoriga amal qiladi. Shu sababli ayrim xalqlarda bu termin «kuylovchi tong» ma'nosini anglatadi²⁸. Vaqt bilan qadam-baqadam yuruvchi bu obrazni quyoshga o'xshatilgan, har ikkisi ham vaqtni aniqlashtirishda yordam beradi. Demak, xo'roz «Vaqt xabarchisi» ham ekan.

Shuningdek uning qanday qilib uy hayvoniga aylanishi haqida ayrim adabiyotlarda ma'lumotlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, xo'rozning uy parrandasiga aylanishi sababi ba'zi afsonalarda Kayumars bilan bog'lanadi. Unga ko'ra Kayumars xo'rozning makiyonini qutqarish uchun ilon bilan olishayotganini ko'rib qoladi va uning bu g'amxo'rligini inson tabiatiga o'xshatib, uyiga olib keladi²⁹. Arablarning suaxili xalqlaridagi «Tovuq va sesarka» (sesarka–tovuqsimonlar turkumidagi parranda) ertagida o'rmonda sovqotgan tovuq, xo'roz va sesarka

²⁵ Турдимов Ш. «Гўруғли» дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари: Филология фанлари доктори...дис.автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 15.

²⁶ Жумаев Р. «Лисон ут-тайр»даги бир мажозий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – 4-сон. – Б. 24.

²⁷ Мифологическая энциклопедия. <http://myfology.info/myth-animals/cock.html>

²⁸ Мифологическая энциклопедия. <http://myfology.info/myth-animals/cock.html>

²⁹ Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 28.

insonlardan olov soʻraydi. Biroq ular olov berishni xohlamay tovuq va xoʻrozni atayin toʻkin dasturxon ustida mehmon qilishadi. Oʻrmonda yolgʻiz qolgan sesarka tovuq va xoʻrozdin xavotir olib, odamlarning uyiga borsa, ular tovuqni soʻyib ovqat qilayotganligiga koʻzi tushadi. Buni koʻrgach, u qoʻrqib, oʻrmonda yashashga ahd qildi. Oʻshandan buyon tovuq va xoʻroz insonlar bilan, sesarka esa oʻrmonda yashaydigan boʻlibdi³⁰. Yuqorida berilgan har ikki voqea-hodisa turlicha talqin qilinsa-da, mohiyatiga koʻra bir xil. Har ikki mif genezisiga koʻra turkiy va arab xalqlarining islomdan oldingi eng qadimgi folklor namunalari asosida yaratilgan lavhalardir.

«Qisasi Rabgʻuziy»da ham xoʻroz obraziga murojaat qilingan. Unda xoʻrozig xos tabiat etiologik nuqtai nazaridan tahlil etilib, adib bu tasvirlarni badiiy haqiqat darajasida koʻtara olgan. Qissada uning qay tarzda uy parrandasiga aylangani va «qichqirigʻi» sababi haqida qiziqarli lavha keltiradi. Unga koʻra, toʻfon tugab, kema Jadi togʻi boshiga qoʻnadi. Shunda paygʻambar «Yerda suvning ne miqdor qolganligini bilish uchun kim boradi» deganda, qora qargʻa bu vazifani oʻz zimmasiga oladi. Nuh (a.s) unga ruxsat berish oldidan qaytib kelishi uchun biror narsani kafil qilib qoldirishini soʻraydi. Shunda soddadil va oqkoʻngil xoʻroz qargʻa uchun kafil boʻldi. Qargʻa esa uchib ketgach, vaʼdasi esidan chiqdi. Lafzsizlik qilib qaytmadi. Qargʻaning bevafoolidan xoʻrozning ahvoli tang boʻldi. «Erkak tovuq oʻgʻgʻa kirmish uchun kemiga kirib, kemi tomingʻa oshib, qanit toʻkib chorlayu boshladi. Qargʻa andin yonmadi. Nuh alayhis salom tovuqni olib qoldi. Ul sababdin tovuq uchmas boʻlub odamiylar birla qoldi»³¹. Xoʻrozning sodda, gʻoʻr va ishonuvchanligi qimmatga tushdi. Shu sababli u va uning avlodlari bir umr odamlar bilan yashashga mahkum etildi. Demak, adib xoʻrozning uy hayvoniga aylanishini Nuh toʻfoni bilan bogʻlagan. Bu mifik tasavvurlarning ildizi eng qadimiy davrlarga taqalib, «Urugʻchilik sharoitida yashagan kishilar oʻz qarashlarining dual tabiatidan kelib chiqib avvaliga konkret, keyinchalik esa mavhum narsa hodisalarni fikran yonma-yon qoʻyib, bir-biriga zidlash yoki taqqoslash orqali muddaoni anglatganlar.

³⁰ Фольклор и этнография. – Ленинград: Наука, 1970. – С. 232.

³¹ Рабғузий. Қисаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. 1-к. – Б. 45.

Jonli so‘zlashuv nutqidagi bu tajriba voqea-hodisalarni badiiy idrok etish yo‘siniga ham kirib keldi»³². Shu tarzda xo‘roz timsolida sodda va oqko‘ngil odamlarning ishonchini qarg‘aga o‘xshash yolg‘onchi va nomardlar suiste‘mol qilishini badiiy aks ettirgan. Mazkur mif ham etiologik xususiyatga ega bo‘lib, xo‘roz bilan bog‘liq ilk ibtidoiy qarash mahsuli hisoblanadi. Lavhada adib nafaqat xo‘rozning uy parrandasiga aylanishi, balki uning har tongda baland shox yoki uyning tomiga chiqib qanot qoqib qichqirishining ham izohini keltirgan. Muallif «vaqt jarchisi»ning har tongda baland joyga chiqib qichqirishining sababini xo‘roz hali-hanuz do‘sti qarg‘aning qaytib kelishini kutishida, deya izohlaydi. Bunday asotirlar garchand qisqa syujet asosida qurilgan bo‘lsa-da, «... o‘zida dunyoni tushunish va tushuntirishning sodda ko‘rinishini aks ettiradi»³³ va kishi undan olam-olam zavq oladi, shu bilan birga hayrat daryosiga cho‘madi.

Umuman olganda, miflarning yaratilishi tarixan uzoq moziyga borib taqaladi. Hayvonlarning genezisi, o‘ziga xos xarakteri, tashqi qiyofasi haqidagi qarashlar ilk ilmiy tushunchalar sifatida qimmatlidir. O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelgandan so‘ng necha ming yillik tarixga ega bu asotirlarga islom ta‘limoti singdirilib, yangi mazmun kasb eta boshladi. «Qisasi Rabg‘uziy» asarida ham ana shu qarashlar ifodasi yetakchilik qilib, hayvonot dunyosining paydo bo‘lishi va o‘ziga xos tabiati payg‘ambarlarning faoliyati bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu esa hayvonot olamining muayyan turlari haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitadi.

³² Ёрматов И.Т. Ўзбек халқ қахрамонлик эпоси бадиияти: Филология фанлари доктори...дис. –Тошкент, 1994. – Б. 25.

³³ Пропп. Фольклор и действительность. – Москва: Наука, 1976. – С. 51.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Sh. GLOBAL TA'LIMDAN MILLIY MAQSADLAR TOMON...4

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA

<i>Qozoqboy Yo'ldosh</i> "MEHROBDAN CHAYON" ROMANINING O'QUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISH METODIKASI.....6	6
<i>Mirzayeva Z.</i> ADABIY TA'LIMGA KONSEPTUAL YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI.....12	12
<i>Matchonov S.</i> ADABIY TA'LIMDA KITOBXONLIK MUAMMOSI.....22	22
<i>Qodirov V.</i> TIL VA ADABIYOT TA'LIMIGA YANGICHA YONDASHUVLAR YUZASIDAN MULOHAZALAR.....30	30
<i>Abdullayeva M.</i> ADABIYOT O'QITISHDA O'YIN TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI.....39	39
<i>Matyoqubova T.</i> LIRIK KECHINMANI O'QUVCHIGA "YUQTIRISH" MAHORATI.....43	43
<i>Kambarova S.</i> ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH.....50	50
<i>Yuldasheva N.</i> PEDAGOGIK MAHORAT: SIFATLI DARS - KUTILGAN NATIJA.....60	60
<i>Ishonxanova I.</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDAGI "MEHR VA SUHAYL" HIKOYATINING O'QITILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR.....71	71
<i>Mavlonova K.</i> O'QUVCHILARNI MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR BILAN TANISHTIRISH..... 75	75
<i>Abdiraimov Sh.</i> DAVLAT TA'LIM STANDARTI VA O'QUV DASTURLARINING BAHOLAH TIZIMIGA TA'SIRI.....78	78

ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

<i>Homidjon Homidiy Mallayev</i> – Navoiyshunos.....83	83
<i>Qozoqboy Yo'ldosh</i> MILLIY RUH POSBONI.....88	88
<i>Jumaxo'ja Nusratullo</i> NAVOIYSHUNOSLIKNING YECHIMINI KUTAYOTGAN MUAMMOLARI.....101	101
<i>Xamrakulova X.</i> ABDULLA QAHHORNING ADABIY ESTETIK QARASHLARI.....111	111
<i>Jo'raeva G.</i> BOLALAR HAJVIY SHE'RIYATI – G'OYAVIY-MA'RIFIY VA ETIK-ESTETIK TARBIYA QUROLI.....120	120
<i>Shukurova Z.</i> "QISASI RABG'UZIY"DA HAYVONOT DUNYOSINING PAYDO BO'LISHI HAQIDAGI MIFLAR.....130	130
<i>Ahmedov H.</i> ALISHER NAVOIY: SHAXSIYAT VA IJOD UYG'UNLIGI.....134	134
<i>Isayeva Sh.</i> RUHIYAT TASVIRINI O'RGANISH MASHAQQATI138	138
<i>Raxmonova Sh.</i> ERKIN VOHIDOV G'AZALIYOTIDA VASLNING O'RNI.....142	142